

DALVARZINTEPA MANBALARIDA MITRA OBRAZINING IFODALANISHI



**Rahmonberdiyeva
Mahkamoy Jo'ra qizi,**
TerDU tadqiqotchisi



Annotatsiya:

Mazkur maqolada Dalvarzintepa arxeologik yodgorligi Kushon davri shahar madaniyati kontekstida, ayniqsa Mitra kultining ifodalanishi nuqtai nazaridan kompleks tarixiy-arxeologik yondashuv asosida tahlil qilinadi. Tadqiqot jarayonida yodgorlikning urbanistik tuzilishi, ijtimoiy-iqtisodiy tizimi hamda diniy-madaniy xususiyatlari arxeologik qazishmalar natijalari va yozma manbalar sintezi asosida ko'rib chiqiladi, bunda Mitra obrazining moddiy va ramziy shakllarda aks etishi alohida e'tiborga olinadi.

Kalit so'zlar:

Dalvarzintepa, Mitra, Kushon davri, Baqtriya, urbanizatsiya, shaharsozlik, diniy sinkretizm, arxeologiya, moddiy madaniyat, Mitra kulti, quyosh ramzi, ibodatxonalar, ijtimoiy-iqtisodiy tizim, savdo aloqalari, hunarmandchilik, me'moriy yodgorliklar, diniy markazlar, Markaziy Osiyo tarixi, qadimgi sivilizatsiyalar.

Аннотация:

В данной статье археологический памятник Далварзинтепа рассматривается в контексте городской культуры Кушанский период на основе комплексного историко-археологического подхода с особым акцентом на отражение культа Митра. В ходе исследования анализируются урбанистическая структура памятника, его социально-экономическая система и религиозно-культурные особенности на основе синтеза археологических раскопок и письменных источников, при этом особое внимание уделяется материальным и символическим проявлениям образа Митры.

Ключевые слова:

Далварзинтепа, Митра, Кушанский период, Бактрия, урбанизация, градостроительство, религиозный синкретизм, археология, материальная культура, культ Митры, солнечная символика, архитектурные памятники, социально-экономическая система.

Abstract:

This article examines the archaeological site of Dalvarzintepa within the context of urban culture during the Kushan period, employing a comprehensive historical and archaeological approach with a particular focus on the representation of the cult of Mithra. The study analyzes the urban structure, socio-economic system, and religious-cultural characteristics of the site based on a synthesis of archaeological excavations and written sources, with special attention to the material and symbolic expressions of Mithra.

Keywords:

Dalvarzintepa, Mithra, Kushan period, Bactria, urbanization, urban planning, religious syncretism, archaeology, material culture, Mithraic cult, solar symbolism, socio-economic system.

Kirish.

Dalvarzintepa — Markaziy Osiyoning antik davr sivilizatsiyasi taraqqiyotida strategik o‘rin tutgan eng yirik arxeologik yodgorliklardan biri hisoblanadi. Ilmiy adabiyotlarda ushbu maskan Kushon imperiyasi davri shahar madaniyatining eng yuksak bosqichlarini o‘zida mujassam etgan murakkab urbanistik markaz sifatida e’tirof etiladi. Tarixiy-geografik jihatdan Shimoliy Baqtriya hududiga mansub bo‘lgan ushbu shahar¹, Amudaryo havzasidagi ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy tizimning ajralmas bo‘g‘ini bo‘lib xizmat qilgan.

Miloddan avvalgi I asrda dastlab kichik Yunon-Baqtriya istehkomi bo‘lgan Dalvarzin yon tomonlarga qarab, istehkom devori bilan o‘ralgan keng shaharga aylandi². Tarixiy va arxeologik ma’lumotlarga ko‘ra, bu shahar Xitoy xronikasida Zan Xan-shu deb nomlangan Yue-zhi (Yueh-chih) deb nomlangan xalqning asl poytaxti bo‘lgan va ular uni “Guy-Shuy (Amudaryo) daryosining shimoliy tomonida” asos solgan. Kushon davrida (milodiy I-III asrlar) shahar shahar va mudofaa qurilishining eng faol davrini boshdan kechirgan³

Arxeologik qazishmalar natijalari Dalvarzintepaning puxta rejalashtirilgan me’moriy loyihaga ega ekanligini tasdiqlaydi. Shahar tarkibiy qismlari aniq funksional vazifalarga ko‘ra tabaqalangan bo‘lib, bu Kushon davri shaharsozlik an’analarining institutsionallashgan shaklda mavjud bo‘lganini ko‘rsatadi:

- **Qal’a (Ark):** Ma’muriy-siyosiy boshqaruv va elita rezidensiyasi joylashgan markaz;

- **Turar-joy massivlari:** Aholining ijtimoiy tabaqalanishini aks ettiruvchi turar-joy majmualari;

- **Hunarmandchilik zonalar:** Ixtisoslashgan ishlab chiqarish va ichki bozor tizimi;

- **Diniy-kult markazlari:** Shaharning ma’naviy va mafkuraviy hayotini tartibga soluvchi inshootlar.

Mazkur manbalar doirasida Mitra obrazining ifodalinishi asosan bilvosita arxeologik dalillar orqali talqin qilindi. Xususan, Dalvarzintepada aniqlangan diniy inshootlar, haykaltaroshlik namunalari uchraydigan nurlik disk, quyoshga oid ramziy tasvirlar hamda hukmdor hokimiyatini ilohiylashtiruvchi ikonografik elementlar Mitra kultiga xos bel-

1 Masson, V. M. *Drevnie tsivilizatsii Sredney Azii*. Leningrad: Nauka, 1989.

2 Litvinskiy, B. A. *Kushanskaya Bactriya: Problemy istorii i kul'tury*. Moskva: Nauka, 1979.

3 Pugachenkova, Galina Anatolevna. “DAL’VERZIN TEPE.” *Iranika entsiklopediyasi*. 1993 yil 15 dekabrda chop etilgan. <https://www.iranicaonline.org/articles/dalverzin-tepe/>



gilar sifatida izohlanadi. Bu kabi ramziy ifodalar Mitraning yorug'lik, kosmik tartib va ijtimoiy adolat timsoli sifatidagi funksiyalarini aks ettiradi. Shuningdek, Dalvarzintepada kuzatiladigan diniy muhit Buddaviylik va mahalliy eroniy e'tiqodlarning o'zaro uyg'unlashuvi bilan xarakterlanadi. Ana shu diniy sinkretizm sharoitida Mitra obrazi mustaqil kult sifatida emas, balki boshqa diniy tizimlar bilan integratsiyalashgan holda namoyon bo'lgan bo'lishi ehtimoldan xoli emas. Shu jihatdan, Dalvarzintepa materiallari Mitra kultining bevosita emas, balki ramziy-ideologik shaklda, ayniqsa quyosh va hokimiyat bilan bog'liq tasavvurlar orqali ifodalanligini ko'rsatadi. Dalvarzindan topilgan tangalar ham bu fikmi dalili hisoblanadi. Kushon sulolasining o'n uchta shohi - Kujula Kadfises, Vima Takto, Vima Kadfises, Kanishka I, Xuvishka, Vasudeva I, Kanishka II, Vasishka, Kanishka III, Vasudeva II, Shaka va Kipunadha - Baqtriyadagi Kushonshohlar, Kidariylar va bosib oluvchi Ma'radan farqli ravishda alohida birlik sifatida qaraladi⁴ va ularning tangalarida asosan Mitra tasvirini ko'rishimiz mumkin. Mazkur tangalardagi Miir yozuvi ham shubhasiz tangalar Mitraga bag'ishlab zarb etilganini ko'rsatadi. Tangalar dastlab yunon tilida keyinchalik esa Baqtriya yozuvida zarb etilgan⁵. Shuningdek, bu davrda zarb etilgan tangalardagi ko'rinish nurli halqa ichida

tasvirlanishi Quyoshning ya'ni Mitraning belgisi hisoblanadi.

Iqtisodiy faoliyat doirasida esa Mitra kultining bilvosita aks etishi ham ehtimoldan xoli emas. Chunki Mitra qadimgi eroniy an'analarda savdo bitimlari, ahd va ijtimoiy ishonchning ilohiy kafolatchisi sifatida talqin etilgan bo'lib, rivojlangan savdo-iqtisodiy munosabatlar mavjud muhitda uning mafkuraviy ahamiyati ortgan. Shu bois Dalvarzintepada aniqlangan iqtisodiy komplekslar nafaqat ishlab chiqarish markazlari, balki muayyan darajada diniy-ideologik qarashlar bilan ham bog'liq ijtimoiy makon sifatida baholanishi mumkin. Madaniy qatlamlar tahlili esa Dalvarzintepada diniy va mafkuraviy jarayonlar ham faol kechganini ko'rsatadi. Mazkur diniy muhit doirasida Mitra obrazining ifodalanishi ham sinkretik xarakter kasb etgan bo'lishi mumkin. Arxeologik materiallarda bevosita Mitra kultiga oid aniq yozma yoki epigrafik dalillar kam uchrasa-da, quyoshga oid ramziy belgilar, nur taratuvchi tasviriy elementlar hamda muqaddaslikni ifodalovchi ikonografik motivlar Mitra bilan bog'liq diniy tasavvurlarning bilvosita aks etishi sifatida talqin etiladi. Shu jihatdan, Dalvarzintepa madaniy qatlamlari Mitra kultining mustaqil diniy tizim sifatida emas, balki boshqa diniy an'analardan uyg'unlashgan holda, umumiy diniy-mafkuraviy makon tarkibida mavjud bo'lganligini ko'rsatadi.

Metodologiya.

Tadqiqotda kompleks ilmiy-metodologik yondashuv qo'llanilib, Dalvarzintepa yodgorligini o'rganishda bir nechta o'zaro bog'liq analitik usullar integratsiyalashgan holda tatbiq etildi. Mazkur metodologiya yodgorlikning tarixiy, arxeologik va madaniy qatlamlarini tizimli ravishda yoritish hamda olingan natijalarning ilmiy ishonchligini ta'minlashga xizmat qildi.

Mazkur natijalar yordamida Mitra kultiga oid ehtimoliy belgilar — quyoshga xos ramziy tasvirlar, diniy obyektlarning joylashuvi hamda ikonografik elementlar — umumiy madaniy kontekstda baholanib, ularning diniy-mafkuraviy mazmuni aniqlashtirildi.

Natijalar.

Tadqiqot natijalari Dalvarzintepaning quyidagi asosiy xususiyatlarini aniqladi:

Birinchidan, Dalvarzintepa Kushon davri urbanistik tizimida yirik shahar markazi sifatida faoliyat yuritgan bo'lib, u yuqori darajada rivojlangan va murakkab rejalashtirilgan shaharsozlik tizimi bilan ajralib turadi. Arxeologik tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatadiki, shahar strukturasi funksional zonalashuv aniq shakllangan bo'lib, u o'z ichiga siyosiy-ma'muriy markaz vazifasini bajargan qal'a (sitadel), aholining asosiy qismi joylashgan turar-joy massivlari, ishlab chiqarish va hunarmandchilik faoliyati jamlangan maxsus hududlar hamda diniy marosimlar amalga oshirilgan ibo-

4 Breysi, Robert. "Kushon sulolasiyasi iv. Kushonlar tangalari." Entsiklopediya Iranica . 2016-yil 10-avgustda nashr etilgan. <https://www.iranicaonline.org/articles/kushan-dynasty-04>

5 Smagur E. Mithra on Kanishka and Huvishka Coins // Studies in Ancient Art and Civilization. – Kraków: Jagiellonian University, 2012. – Vol. 16. – P. 201–210.

datxona va kult inshootlarini qamrab olgan. Shuningdek, bu hududda urbanistik tizim doirasida diniy makonlarning mavjudligi Mitra kultining ham shahar mafkuraviy-hayotiy tizimida bilvosita o'rin egallagan bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi. Xususan, ibodatxona va kult inshootlarining markaziy yoki strategik hududlarda joylashuvi diniy tasavvurlar, jumladan quyosh va kosmik tartib bilan bog'liq Mitra obrazining urbanistik ongda aks etgan ehtimolini kuchaytiradi.

Ikkinchidan, Buddaviylikka oid arxeologik topilmalar — haykaltaroshlik kompozitsiyalari, ibodatxona qoldiqlari hamda ikonografik mazmunga ega artefaktlar — Kushon davri diniy-madaniy muhitining murakkab va ko'p qatlamli xarakterga ega bo'lganini ko'rsatadi¹. Mazkur diniy qatlamlar doirasida Mitra obrazining ham bilvosita aks etishi ehtimoli mavjud. Xususan, savdo aloqalarining kengayishi, ijtimoiy shartnomalar tizimi hamda hokimiyat legitimatsiyasi bilan bog'liq tasavvurlar Mitra kultiga xos "ahd va adolatni kafolatlovchi" funksiyaning mafkuraviy darajada muhim bo'lganini ko'rsatadi. Shu jihatdan, Dalvarzintepaning diniy-madaniy muhiti buddaviylik va mahalliy eroniy e'tiqodlar o'zaro sintezi asosida shakllangan murakkab tizim sifatida talqin etiladi.

Mavjud ijtimoiy tabaqalanish tizimi Kushon davri jamiyatida mafkuraviy jihatdan ham asoslangan bo'lishi mumkin. Bu jarayonda Mitra kultining "adolat", "tartib" va "ijtimoiy muvozanat"ni ta'minlovchi g'oyalari² muhim ideologik omil sifatida xizmat qilgan ehtimoli mavjud. Xususan, hokimiyat legitimatsiyasi, ijtimoiy tartibning muqaddaslashtirilishi hamda qatlamlararo munosabatlarning diniy asosda mustahkamlanishi Mitra bilan bog'liq diniy tasavvurlar orqali izohlanishi mumkin.

Muhokama.

Dalvarzintepadan olingan arxeologik materiallar tahlili Kushon davri Markaziy Osiyo hududida urbanizatsiya jarayonlarining yuqori darajada rivojlanganligini yaqqol namoyon etadi. Moddiy madaniyat komplekslari, shahar rejalashtirish tamoyillari hamda ishlab chiqarish tizimiga oid topilmalar ushbu davrda shaharsozlik an'analari murakkab va institutsionallashtirilgan shaklda faoliyat yuritganini ko'rsatadi.

Mazkur jarayon Dalvarzintepa hududida madaniy pluralizmning shakllanganidan dalolat beradi, ya'ni turli diniy qarashlar o'rtasida keskin qarama-qarshilik emas, balki o'zaro moslashuv va sintez tendensiyalari ustuvor bo'lgan. Ayniqsa, Buddaviylik ta'sirining kuchayishi mahalliy diniy an'analardan integratsiyalashgan holda yangi diniy-madaniy muhitni shakllantirgan³. Shu jihatdan Dalvarzintepa faqat urbanistik va iqtisodiy markaz emas, balki diniy-mafkuraviy integratsiya jarayonlari faol kechgan muhim madaniy markaz sifatida ham baholanadi. Bu holat Kushon davri jamiyatining diniy bag'rikenglik va madaniy sintezga asoslangan murakkab ijtimoiy tuzilishga ega bo'lganini tasdiqlaydi.

Mazkur sinkretik muhitda Mitra obrazining ham bilvo-

sita integratsiyalashuvi kuzatiladi. Xususan, quyosh ramzlari, ijtimoiy tartib va adolatni ifodalovchi mafkuraviy tasavvurlar hamda shartnomaviy munosabatlarga oid g'oyalarda Mitra kultiga xos bo'lib, ular umumiy diniy tizim tarkibida boshqa e'tiqodlar bilan uyg'unlashgan holda mavjud bo'lganini ko'rsatadi.

Shuningdek, Dalvarzintepada iqtisodiy va savdo tizimlarining izchil rivojlanishi shaharni yirik transregional va xalqaro almashinuv tarmoqlariga faol integratsiyalashuviga olib kelgan. Arxeologik topilmalar, jumladan import qilinuvchi buyumlar, pul muomalasiga oid dalillar hamda turli hududlarga xos moddiy madaniyat namunalari aniqshirishi Dalvarzintepaning uzoq masofali savdo aloqalarida muhim bo'lg'in sifatida ishtirok etganini ko'rsatadi. Bu jarayonda Mitraning "ahd va ishonch homiysi" sifatidagi konsepsiyasi savdo-iqtisodiy munosabatlarning mafkuraviy asoslarini mustahkamlovchi omil sifatida talqin qilinishi mumkin.

Ushbu jarayon Dalvarzintepani qadimgi tranzit yo'llari tizimiga bog'lab, uning geostrategik ahamiyatini sezilarli darajada oshirgan. Ayniqsa, Baqtriya hududining markaziy geografik o'rni tufayli Dalvarzintepa Sharq va G'arb o'rtasidagi iqtisodiy va madaniy almashinuv jarayonlarida vositachi markazlardan biri sifatida faoliyat yuritgan.

Xulosa.

Xulosa o'rinda aytish mumkinki, Dalvarzintepa yodgorligi Kushon davri Markaziy Osiyo shahar madaniyatining eng yirik va muhim markazlaridan biri sifatida baholanadi. Arxeologik va tarixiy tadqiqotlar natijalari ushbu shahar yuqori darajada rivojlangan urbanistik tizimga ega bo'lganini, unda shaharsozlik tamoyillari aniq rejalashtirish asosida shakllanganini ko'rsatadi. Shuningdek, iqtisodiy tizimning ko'p tarmoqli xarakteri — hunarmandchilik, savdo va agrar ishlab chiqarishning integratsiyasi — Dalvarzintepaning Kushon davri iqtisodiy makonida muhim o'rin egallaganini tasdiqlaydi.

Mazkur jarayonlar doirasida Mitra kultining ham bilvosita ahamiyati kuzatiladi. Xususan, ijtimoiy tartib, adolat va shartnomaviy munosabatlarga oid mafkuraviy tasavvurlar Mitra bilan bog'liq diniy qarashlar orqali mustahkamlangan bo'lishi mumkin. Shu jihatdan Dalvarzintepa nafaqat urbanistik va iqtisodiy taraqqiyot namunasi, balki diniy-sinkretik muhitda shakllangan murakkab mafkuraviy tizimning ham ifodasi sifatida namoyon bo'ladi.

1 Harmatta, J. *History of Civilizations of Central Asia: The Kushan Period*. UNESCO, 1994.

2 Pugachenkova, G. A. *Iskusstvo Baktrii epoxi Kushan*. Moskva: Nauka, 1966. C-72

3 Litvinskiy, B. A. *Archaeological Research in Southern Uzbekistan*. Moscow: Nauka, 1980.